

TABIIY VA SUNIY CHARM DAN TULI ASSORTIMENTDAGI CHARM ATTORLIK BUYUMLARINI TAYYORLASH

M.M.Raxmonova

Yengil sanoat va to'qimachilik fakulteti

Yengil sanoat muhandisligi kafedrasida assistenti

Annotatsiya: *Tabiiy teri va mo'ynadan, mahsulot ishlab chiqarishda, tabiiy charmning o'lchamlari turlicha bo'lishi mumkin, tayyorlanadigan buyum turiga qarab, kerakli qismidan foydalaniladi, qolgan qoldiqlarni chiqindiga aylantirmay undan unumli foydalangan holda turli aksessuarlar va boshqa buyumlar tayyorlash mumkin. Bu orqali mahsulot samaradorligi yanada oshadi.*

Kalit so'zlar: *tabiiy teri, furnitura, aksessuar, tabiiy charm mayda detallari, dizayn, taqinchoq, g'ilof.*

Аннотация: *При производстве изделий размеры натуральной кожи могут быть разными, в зависимости от вида приготавливаемого изделия используется необходимая часть, а если эффективно использовать оставшуюся часть, не превращая ее в отходы, то можно изготовить различные аксессуары и другие товары. Это повысит эффективность продукта.*

Ключевые слова: *натуральная кожа, фурнитура, фурнитура, мелкие детали из натуральной кожи, дизайн, украшения, футляр.*

Abstract: *In the production of products, the sizes of natural leather can be different, depending on the type of product being prepared, the necessary part is used, and if the rest is effectively used without turning it into waste, it is possible to make various accessories and other products. This will increase the efficiency of the product.*

Keywords: *natural leather, fittings, accessories, small details of natural leather, design, jewelry, case.*

Charm attorlik buyumlari – bu kundalik hayotda keng qo'llaniladigan, funksional va estetik ahamiyatga ega charm mahsulotlar bo'lib, ularga sumkalar, kamarlar, hamyonlar, qoplamalar, portfellar va boshqa ko'plab buyumlar kiradi. Ularni tayyorlashda ishlatiladigan asosiy materiallar – tabiiy va sun'iy charmdir. Har ikki materialning o'ziga xos afzalliklari, ishlov berish texnologiyasi va qo'llanilish sohalari mavjud. Hayvon terisidan foydalanish uzoq yillardan buyon saqlanib, rivojlanib

kelayotgan sanoat tarmoqlaridan biridir. Tabiiy teri tabiat in'om etgan katta boylik hisoblanadi. Hayvon terisi uni tanasini qoplab turuvchi qatlam bo'lib, uni tashqi ta'sirlardan himoya qilib turuvchi omildir. Teri tuzilishiga ko'ra jun qoplami, epidermis, derma va teri osti to'qimasini tashkil qiladi. Hayvon terisi xom ashyo sifatida foydalanishgacha yetib kelgunga qadar oshlash, pardoqlash va bir qancha bosqichlardan o'tib, yarim tayyor mahsulot ko'rinishiga keladi. Tarixdan bizga ma'lumki, tabiiy charmdan kiyim-bosh, oyoq kiyim, xaltalar va turli buyumlarni yaratishda foydalanib kelingan. Bugungi kunga qadar tabiiy charmdan foydalanish saqlanib qolgan bo'lib, borgan sari yanada qiymati ortib bormoqda. Dunyo miqyosida ham tabiiy charmdan tayyorlangan buyumlar yuqori qiymatga ega hisoblanadi. Hozirda, charm sanoati jadal rivojlangan bo'lib, undan turli sohalarda keng foydalaniladi, yurtimizda ham charm va mo'yna sanoati rivojlanishiga katta e'tibor qaratilmoqda. Tabiiy charm hayvon terisidan olinib, maxsus ishlov berish – oshlash, bo'yash, pardoqlash kabi bosqichlardan o'tadi. Quyidagi turlar keng tarqalgan:

- **Yupqa va yumshoq charm** – qo'lqop, sumka, hamyonlar tayyorlashda ishlatiladi.
- **Qattiq charm** – kamar, portfel, poyabzal tagligi uchun ishlatiladi.
- **Lakli charm** – bezakli attorlik buyumlarida qo'llaniladi.
- **Zamsh** – teksturali, hashamatli ko'rinishga ega, moda mahsulotlarda keng qo'llanadi.

Sun'iy charmning xususiyatlari va qo'llanilishi Sun'iy charm polimer materiallardan (PVX, poliuretan) tayyorlanadi va ko'rinishi, strukturasi bilan tabiiy charmga o'xshatilib ishlab chiqiladi. Uning afzalliklari:

- Arzonligi
- Rang va faktura xilma-xilligi
- Yengil ishlov berish imkoniyati
- Namlikka nisbatan chidamliligi

Sun'iy charm ekologik toza alternativ bo'lib, tez-tez moda mahsulotlarda qo'llaniladi. Mamlakatimizda yetishtiriladigan chorva mollaridan olinuvchi hayvon terisidan to'liq xolda unumli foydalanish, undan sifatli tabiiy charm olish va uni tayyor mahsulot sifatida iste'molga chiqarish dolzarb vazifa etib belgilandi. Kundan kunga tabiiy charmdan foydalanib mahsulot ishlab chiqaruvchi korxonalar soni ortib bormoqda. Ayollar va erkaklar uchun kiyimlar, aksessuarlar tayyorlashda, poyabzal ishlab chiqarishda,

mebelsozlikda, dekorativ buyumlar yaratishda va turli yo'nalishlarda foydalalanish kengayib bormoqda.



Qopqoqli yoki qopqoqsiz stakanlar uchun g'iloflar tayyorlashda tabiiy charm qirqimlaridan foydalansa bo'ladi. Bu kabilar qaynoq choy, kofe va boshqa issiq ichimliklar quyilgan stakanlarni qo'l bilan ushlaganda, qo'lni kuyishdan saqlash maqsadida tayyorlanadi. Unga qulayligini yanada oshirish maqsadida, g'ilofga turli metal, plastmast furnituradan yoki tabiiy charmdan ushlagich o'rnatish mumkin.



Quloqchin, quvvatlagich va boshqa turdagi simlarni tartibli saqlab turuvchi tabiiy charmdan tayyorlangan taqilmali ushlagichlardan foydalanish ham juda qulay. Uni har xil dizaynda tayyorlash insonga ham qulaylik ham estetik zavq beradi.



Tabiiy charmning mayda detallaridan tayyorlangan taqinchoqlar taqish hozirgi kunda urfga kirgan. Charmdan tayyorlangan ziraklar, chokerlar, brasletlar, bo'yinga taqish uchun aksessuarlar yaratilgan obrazni yanada to'ldirib, unga ko'rk berib turadi.



Sochga taqish uchun zakolkalarni tayyorlashda ham tabiiy charm qirqimlaridan foydalanish buyumga o'zgacha ko'rinishi bag'ishlaydi. Tabiiy charmdan yasalgan zakolkalar afzalligi uni yumshoqligida, u boshga qattiq botmaydi, sochni yulmaydi.



Tabiiy charm va mo'yna mayda qirqimlaridan yaratilgan bu kabi aplikatsiyalardan yosh bolalar kiyimida foydalanish ayni muddao. Bunday hayvonchalar ko'rinishidagi bezaklar bolalarning kuzgi va qishgi liboslarida foydalanish kiyimni yanada quvnoqroq va qiziqarliroq qiladi. Aplikatsiyalarni dizaynini tanlangan obrazaga qarab istalgan ko'rinishda yaratish mumkin va ulardan taqinchoqlar, kiyim bezaklari va boshqalarda foydalaniladi.



Nafis gul ko'rinishidagi tabiiy charmdan yasalgan bezakdan istalgan maqsadda foydalansa bo'ladi. Bunday gullar juda ham tabiiy ko'rinadi. Undan kiyim va sumkalarni bezash buyumni yanada go'zallashtiradi. Bu kabi bezaklarni har xil rang, shakl va hajmda yaratish mumkin, ularni taqinchoqlar sifatida ham taqsa bo'ladi.



Tabiiy charm bo'laklaridan ko'p kitob mutoala qiluvchilar uchun qulaylik yaratuvchi xatcho'p yaratish mumkin. U estetik chiroyli, qulay, o'zgacha uslubda bo'lib, kitob va kitobxon uchun ham bezarardir. Xatcho'pni turli ko'rinishda bolalar va kattalar e'tiborini tortuvchi ko'rinishda yasash va undan foydalanish mumkin.



Har xil dizayn va hajmdagi tabiiy charm qirqimlaridan yasalgan qalamdonlar ham bugungi kunda anchagina talabgir hisoblanadi. Bunday qalamdonlardan ruchka, qalam va shu kabilarni olib yurish yoki saqlashda foydalanish mumkin bo'ladi.



Tabiiy charm mayda qirqimlarini birlashtirib, tikib mozaika uslubidan foydalanib yaratilgan mebellar, mashina o'rindig'i g'loflari, dekorativ yostiqchalar takrorlanmas ko'rinishga keladi. Charmning maqsadli ishlatilishiga qarab, chegaralanmagan tarzda ijod qilib, bejirim ko'rinishda buyumlar hosil qilish mumkin. Bunday uslubda birlashtirilgan tabiiy charmlardan kiyimlar va sumkalar ham tikish mumkin bo'ladi.



Sumka va kalitlarga osiladigan breloklarni ham tabiiy charmdan yasash mumkin. Ularni turlicha shaklda hayvonchalar, qushchalar, kapalakchalar, gulchalar yoki har xil geometrik shaklchalar va boshqa bir qancha ko'rinishda yaratib undan foydalanish mumkin.

Tabiiy charm bo'laklarini to'qish orqali birlashtirib, yaxlit bir mato sifatida foydalanish mumkin. Bunday matolarda ayollar, erkaklar va bolalar kiyimida, sumkalar katmonlar va boshqa buyumlarni yaratishda qo'llash mumkin bo'ladi. Bizning maxalliy quroq uslubi korinishidagi bu tabiiy charm matosidan tayyorlangan mahsulot betakror ko'rinishga ega bo'ladi.

Xulosa. Tabiiy charmdan yaratilgan buyumlar qimmatbaho bo'lib, undan olingan buyumning asosiy detallaridan ortgan chiqindisidan ham unumli foydalanish mumkin. Yuqorida keltirilgan namunalardan tashqari, bu usuldan foydalanib, 3d ko'rinishida portret, natyurmortlar va mozayka uslubida har xil kartinalar ishlash, mumkin. Bunday tabiiy charmning mayda detallaridan foydalanish, kichik korxonalar, hunarmandlar tomonidan qo'l mehnati yordamida amalga oshirilishi maqsadga muvofiq. Bu jarayon, yaratilgan buyumni qiymatini va mahsulot samaradorligini yanada oshiradi. Qo'l mehnati yordamida yaratilgan buyumlar har doim xaridorgir bo'lib, ayniqsa xorijliklarni unga nisbatan qiziqishi katta. Bu uslubdan foydalanib yaratilgan buyumlarning milliy bozorda mavjudligi, o'z navbatida turizmni yanada rivojlanishiga sabablardan biri bo'lishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. S.S.Maqsudov, “Charm,mo‘yna kimyosi va texnologiyasi”, Terini oshlash-pishirish jarayoniga tayyorlash, oliy o‘quv yurtlari uchun darslik, Toshkent, O‘qituvchi,2004.
2. M.I. Temirova, T. J. Qodirov, “Charm va mo‘yna texnologiyasi”, Toshkent, Turon-Iqbol, 2005.
3. Q.M.Abdullayeva, M.A. Maxsumova, “Gazlamaga badiiy ishlov berish”, kasb-hunar kollejlari uchun o‘quv qo‘llanma, Toshkent, Cho‘lpon, 2006.
4. O. A. Haydarov, “Poyabzal va charm-attorlik buyumlarni modellashtirish asoslari” o‘quv qo‘llanma, Toshkent, “Sharq” 2007.
5. G.A. Mirboboyeva, Ranglar gammasidan foydalanib yangi zamonaviy modellarni yaratish Фарғона политехника институти Илмий – техника журнали 2022. Том 26. спец. вып. №15
6. Mirboboyeva G . Iplardan foydalanib kiyimlarni bezash va bezak elementlarini tayyorlash Toshkent to‘qimachilik va yengil sanoat instituti “Soha korxonalari uchun yuqori malakali kadrlar tayyorlashda milliy va xorijiy tajribalar” mavzusidagi xalqaro ilmiy – amaliy anjuman to‘plami